

“YANGI SANGANAK” XAZINASINING O‘RGANILISH TARIXI

Jurayev Sunnatilla Sa’dulla o’g’li

O‘zRFA Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi

ANNOTATSIYA: *“Yangi Sanganak” mis tangalar xazinasining topilishi, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Kesh sharharlardagi ustaxonalar, Temuriylar davri, XV asrning oxiri va XVI asrning boshilarida zarb etilgan tangalar,*

KALIT SO‘ZLAR: *“Yangi Sanganak”, Buxoro, Toshkent, Kesh, mis tangalar*

ASOSIY QISM: “Yangi Sanganak” xazinasini turkumiga oid mis tangalar O‘rta Osiyoning turli hududlaridan topib o‘rganilgan bo‘lib, ular asosan temuriylar davriga oid mis tangalar hisoblanadi. “Yangi Sanganak” mis tangalariga o‘xshash Samarqandda zarb etilgan tangalarni o‘rganish rus arxeolog va tangashunos olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Bu zahmatkash ishga o‘lkamiz tarixini yoritishda kattta xizmat qilgan arxeolog va tangashunoslarni sanab o‘tishni joiz deb topdik. Bular: M. Ye. Masson, Ye. A. Davidovich, L. Yu. Shpenyova, A. M. Kamishev, R. Z. Burnasheva, D. Davlatxodjalarning xizmatlari beqiyosdir. Jumladan, “Ye. A. Davidovichning “O‘rta Osiyoning o‘rta asrlardagi pul muomalasi tarixi (Movarounnahrning XV – XVI asrning birinchi choragidagi mis tangalari)” ga bag‘ishlangan monografiyasida XV – XVI asrning birinchi choragida Samarqandda zarb qilingan 47 turdagi mis tangalarni batafsil tavsif va tahlil qilgan”¹.

Temuriylar davriga oid Samarqandda zarb etilgan mis tangalar O‘zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona, Kesh va Tojikistonning Hisor va Xuttalon hududlaridan topilgan². Samarqand uslubi o‘xshashligini

¹ Dilmurod Normurodov, Nargis Kholova. About Samarkand coins from the house of the XV – early XVI century found in the “Yangi Sanganak” mahalla // FRONTLINE SOCIAL SCIENCES AND HISTORY JOURNAL. (ISSN – 2752-7018). VOLUME 03. ISSUE 11. Pages: 39-48.

² Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV – первой четверти XVI в. в Мавераннахре). Москва, 1983. С. 71-87.

saqlagan tangalarning so'nggilari hijriy 911 yilga tegishli to'rtburchak shakldagi tasvirli, sanalari son bilan yozilgan tangalardir. Bundan kelib chiqadiki, tangalarning turi va sanasiga qarab keyingi o'rganilishi zarb qilingan shahridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. 15 asrning oxiri – 16- asr boshlariga tegishli mis tangalarning yirik xazinasi O'zbekistonning Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi “Yangi Sanganak” mahalla fuqarolari yig'ini hududida yashovchi fuqaro – I.Boymaqovning hovlisidan topilgan va tadqiq etilgan holda 2021 yilda topilgan. Tangalarning dastlabki miqdori haqida faqat taxmin qilish mumkin: o'rganish uchun taqdim etilgan tangalarning ulushi 1810 tani tashkil qilgan. 2021 yilda esa xazina topilgan hududdan Samarqand mis tangalari topilgan. Tangalar ishlab chiqarilgan joyi va vaqtiga qarab, xazinadagi miqdori ko'rsatilgan holda guruhlarga ajratilgan. Tangalarga ishlov berish jarayonida xazinaning saqlanish darajasi yomonligi sababli noaniqligicha qolgan. Xazina topilgan Samarkand tangalarida ko'rsatilgan sana 923 xijriy yil deb belgilangan, bundan kelib chiqadiki, 913 hijriy yilga qadar zarb qilingan tangalar majmuasi umuman olganda ko'rib chiqilgan Farg'ona vodiysidagi pul muomalasini takrorlaydi, arxeologlarning ta'kidlashicha tanga zarb qiluvchi ustaxonalar Samarqand, Buxoro, Toshkent, Kesh kabi ko'plab shaharlarda faoliyat ko'rsatgan vaqtlar savdo aloqalari rivojlangan tanga – pul islohoti batafsilroq ko'rib chiqiladi. Mamlakatning rivoji uning moliya – pul islohoti bilan o'lchanadi.

Temuriylar davrining so'nggi notinch yillariga tegishli sanoqli Samarqand tangalari saqlangan shulardan oxirgi tangalar 655 dona bo'lib yaxshi holatda saqlangani sababli naqsh va tasvir rekonstruksiya imkoniyat topildi.³ Samarqandning bu tangalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, poytaxt tangalari miqdor jihatdan ancha ko'p bo'lgan. Bunday tangalar Samarqand, Buxoro, Qarshi, Termiz, Shahrisabz, Shoxruhiyada zarb qilingan, ammo bu tangalar zarb qilish Samarqandda eng ommabop bo'lgani sababli fanga Samarqand tangalari deb kiritilgan.

³ Dilmurod Normurodov “Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondi ashyolarini tadqiq etish va saqlash masalalari” nomli ilmiy tadqiqot hisoboti. Toshkent – 2023 y.
www.pedagoglar.org

“Samarqandda hijriy 910 yili zarb qilingan (18 tur) noyob tanga taxmin qilinishicha “o‘ng tarafga qarab yurayotgan o‘rdak va uslublashtirilgan shoxchalar bilan bezatilgan” alohida etibor tortadi”⁴.

Suzak xazinasining 832 yildagi Mirzo Ulug‘bek amalga oshirgan yagona pul birligiga asoslangan islohoti natijasida zarb qilingan, og‘irlashtirilgan *adliya* tangalaridan tashkil topgan edi, mazkur islohot o‘rganilayotgan xazinada ham o‘z aksini topgan. Unda Buxoro 823 hijriy yil tangalari (3 tip) 61 ta topilgan bo‘lib, shulardan 47 tasi turli belgi tasvirlari bilan berilgan edi. Tangalarni analiz qilgan Ye.A.Davidovich ularni misdan zarb qilinganligini isbotadi. Faqatgina Shoshda 889 hijriy yilda zarb qilingan tanga avvalgi tangalarning qayta zarbi bo‘lib, birisining zarbida 6 qirralik tasvir o‘rtasida Samarqand yozuvi ko‘ringan, ikkinchisida esa unchalik aniq bo‘lmagan holda burchaklari yoysimon to‘rtburchak ichida “zarbi Samarqand” yozuvi saqlangan⁵.

Yangi Sanganak xazinasidagi Samarqand mis tangalari turi yagona nusxada unchalik yaxshi saqlanmagan holda uchraydi, uning aversida yozuvning ayrim qismlarigina saqlangan, reversida esa sanasiga 4 bargli tasvir bilan zarb urilgan, aniq holda faqatgina 900 soni ko‘ringan. aniqlangandek *adil Samarqand* nomi bilan tegishli 4 bargli shakldagi zarb hijriy 918 yildan boshlab to 920 yilgacha amalda bo‘lgan. Ammo Toshkent muzeyida ishlagan L.Yu.Shpeneva nodir topilmalar ichida shu turdagi Samarqand tangasini topib, uning tasvirini muallifga taqdim qilgan.⁶ So‘z bilan yozilgan sana yaxshi saqlangan va o‘z vaqtida M.E. Masson tomonidan tadbiiq etilgan va hijriy 920 yilga tegishliligi aniqlangan.⁷

Samarqand tangalari zarbida hayvonot dunyosi tasvirlari paydo bo‘lish sanalarini aniqlashtirish shu bilan ahamiyatliki, Farg‘ona Axxisida hijriy 910 yilda

⁴ Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV – первой четверти XVI в. в Мавераннахре). Москва, 1983.

⁵ Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV – первой четверти XVI в. в Мавераннахре). Москва, 1983. С. 71-78.

⁶ Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV – первой четверти XVI в. в Мавераннахре). Москва, 1983.

⁷ Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV – первой четверти XVI в. в Мавераннахре). Москва, 1983. С.71 -73.

qushlar tasviri bilan zarb qilingan tangalar topilgan, mazkur tangalar poytaxt ustalaridan nusxa olish asosida amalga oshgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga tangalar zarbi orasida 10 yil bo'lishi mujmal masala bo'lib qolmoqda, shu uchun ham ularga ikki sana belgilangan - hijriy 910 va hijriy 920 yillar ko'rsatilgan. Samarqand zarb etilgan tangalarning so'nggilari hijriy 911 yilga tegishli to'rtburchak shakldagi tasvirli, sanalari son bilan yozilgan tangalardir. Bundan kelib chiqadiki, tangalarning turi va sanasiga qarab keyingi o'rganilishi zarb qilingan shahridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Temuriylar davrida poytaxt Samarqand ma'muriy hudud – viloyat bo'lib, uni tarkibiga Buxoro, Kesh, Qarshi, Karmana, Karaqo'l hududlari kirgan. Temuriylar pul siyosatining qiziqarli jihatlaridan biri hijriy 914 /1508-09 yillardagi noodatiy tasvirli Samarqand tangalarini zarb qilish edi. Ta'kidlash lozimki bu turdagi tasvirli mis tangalarning yangi standarti kumush tangalar ogirlikiga tenglashtirilgan, bu esa mis va kumushning muomaladagi kursini tartiblashga xizmat qilgan. Gap Samarqand mis tangalari haiqda ketar ekan. Mis tangalar zarb qilingan Samarqand zarbxonalari haqida ham ma'lumot berish lozim deb bildim.

Samarqandning ayrim tangalardagi dinor yozuvi o'rniga uch harfdan iborat “**dar**”, ya'ni “**uy, saroy**” mazmunidagi yozuv uchraganligini⁸ ta'kidlaydi. Bundan tashqari unga katta bo'lmagan zarbxonalar bolgan, XVI asrning boshlarida bunday zarbxonalar mis dinorlarga tamg'a bosish ishi bilan shug'ullangan edi.

Temuriylardan keyin mamlakatni egallagan Shayboniyxon vafotidan keyin Bobur Samarqandni qayta egallab, uni hijriy 917 yil o'rtalaridan to hijriy 918 yilning birinchi oylarigacha qo'l ostida ushlab turgan, o'sha vaqt oralig'ida Bobur o'z nomidan Samarqandda tanga zarb etishga ulgurgan bu tangalar hijriy 917 va hijriy 918 yillarda zarb etilgan. Bobur temuriy tangalar bezatilishini takrorlagan 6 yaproqli tasvir; bunday tangalar o'rtacha vazni 3,1 g bo'lib, o'sha davrda bir mis dinor miqdoriga teng bo'lgan.⁹ Bu davrda ko'plab zarbxonalar mavjud bo'lgan. Andijon, Axxi, Buxoro va boshqa shaharlarda tangalar zarb qilingan. Faqat,

⁸ Довуди Давлатходжа. Худжандский клад (XV – нач. XVI вв.). Душанбе. 1998. С.19

⁹ Довуди Давлатходжа. Худжандский клад (XV – нач. XVI вв.). Душанбе. 1998. С.19

Toshkent, Samarqand, Buxoro va Balxda, muntazam ravishda tangalar zarb qilingan. Yuqoridagi sanab o'tilgan shaharlardagi zarbxonalar singari Samarqand zarbxonalari ham ko'rib turganingizdek ajralib turadi. Ularda mis tangalarlar bilan bir qatorda kumush tangalar zarb etilgan. Yangi Sanganak mis tangalarini o'rgani mobaynida shu narsa aniq bo'ldiki, tangalardagi zarb va tasvirlar 15 asrning oxiri – 16 asrning boshlaridagi jarayonga to'la mos kelmoqda. Chunki, bu davrda bir sulola tugab ikkinchi sulola boshlangan edi. Temuriylar davri tangalarini tadbiq etish jarayonida ko'zga tashlanadigan jihat shu bo'ldiki, tangalarda zarb tasviri keyingi davrda ham davom etganligini ko'rishimiz mumkin. “Yangi Sanganak” xazinasidagi kabi temuriylar davriga oid mis tangalar O'rta Osiyoning turli hududlaridan topilgan bo'lib, ularni o'rganishda arxeolog va tangashunoslardan M. Ye. Masson, Ye. A. Davidovich, L. Yu. Shpenyova, A. M. Kamishev, R. Z. Burnasheva, D. Davlatxodjalarning xizmatlari kattadir. Jumladan, Ye. A. Davidovichning “O'rta Osiyoning o'rta asrlardagi pul muomalasi tarixi (Movarounnahrning 15 – 16-asrning birinchi choragidagi mis tangalari)” ga bag'ishlangan monografiyasida 15 – 16-asrning birinchi choragida Samarqandda zarb qilingan 47 turdagi mis tangalarni batafsil tavsif va tahlil qilgan.¹⁰

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

¹ Dilmurod Normurodov, Nargis Kholova. About Samarkand coins from the house of the XV – early XVI century found in the “Yangi Sanganak” mahalla // FRONTLINE SOCIAL SCIENCES AND HISTORY JOURNAL. (ISSN – 2752-7018). VOLUME 03. ISSUE 11. Pages: 39-48.

² Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV – первой четверти XVI в. в Мавераннахре). Москва, 1983. С. 71-87.

¹⁰ Dilmurod Normurodov “Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondi ashyolarini tadqiq etish va saqlash masalalari” nomli ilmiy tadqiqot hisoboti. Toshkent – 2023 y.

³ Dilmurod Normurodov “Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondi ashyolarini tadqiq etish va saqlash masalalari” nomli ilmiy tadqiqot hisoboti. Toshkent – 2023 у.

⁴ Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV – первой четверти XVI в. в Мавераннахре). Москва, 1983.

⁵ Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV – первой четверти XVI в. в Мавераннахре). Москва, 1983. С. 71-78.

⁶ Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV – первой четверти XVI в. в Мавераннахре). Москва, 1983.

⁷ Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV – первой четверти XVI в. в Мавераннахре). Москва, 1983. С.71 -73.

⁸ Довуди Давлатходжа. Худжандский клад (XV – нач. XVI вв.). Душанбе. 1998. С.19

⁹ Довуди Давлатходжа. Худжандский клад (XV – нач. XVI вв.). Душанбе. 1998. С.19

¹⁰ Dilmurod Normurodov “Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondi ashyolarini tadqiq etish va saqlash masalalari” nomli ilmiy tadqiqot hisoboti. Toshkent – 2023 у.